

MAKKAJO'XORI O'SIMLIGINING OZIQLANISH MAYDONINI HOSILDORLIGIGA TA'SIRI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15666343>

Roziqov A

Oziq-ovqat texnologiyasi va muhandisligi xalqaro instituti dotsenti

Annotatsiya

Mahalada makkajo'xorining „O'zbekiston – 100“ navini turli oziqlanish maydonlarida ekilib ularning ko'k massa xosildorligi o'rganilib, xosildorlik 70x15*1 shaklda yoki oziqlanish maydoni 0,105m² bo'lgan variantga boshqa variantlarga nisbatan yuqori bo'lganligi aniqlandi.

Oziqabop ekinlar ichida eng yuqori hosilligi makkajo'xori o'simligi xisoblanadi. Shuning uchun ham respublikamizda hozirgi kunda chorva hayvonlar uchun ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklarida makkajo'xori o'simligi kuzgi g'alla ekinlaridan bo'shagan maydonlarga ekilib undan yuqori hosil olishmoqda. Biz shu maqsadda qo'shtepa tumani markaziy F'arg'ona zonasini B. Mahkamov boshchilik qilayotgan fermer xo'jaligi sharoitida makkajo'xorining „O'zbekiston – 100“ navi ustida dala tajribalarini olib bordik.

Dala tajribada makkajo'xori ekiladigan maydon agrotexnik talablar asosida tayyorlanib makkajo'xori urug'I ekildi. Ekish qatori orasi 70 sm kenglikda, har bir bo'lakga Y qaytarmali bo'lib, har bir qaytarma uzunligi 30 metr va 8 qatordan qilib ekildi. O'simliklar tekis unib chiqqandan keyin 70x15-1, 70x20-1 va 70x30-1 shakllarda mavjud uslub asosida yagana o'tkazildi. Qolgan agrotexnik tadbirlar joyning iqlim sharoitiga qarab, sifatli qilib, o'z vaqtida o'tkazildi.

Makkajo'xorini o'suv davridagi barcha fenologik kuzatishlar hisobotlar UzPITI da tayyorlangan „Dala tajribalarini o'tkazish uslubi“ (2007) uslubiy qo'llanmasi asosida olib borildi, yangi o'simliklarning unib chiqishi, barglarining hosil bo'lishi, o'simlikning bo'yining balandligi, sulton chiqarishi, gullashi, sut pishishi, mum pishishi hamda to'la pishishi kuzatildi. Bundan tashqari har bir o'simlikni barg sathini vegetatsiya davri davomida, 20 kunda hisoblab borildi. O'simlik barglarining hosil bo'lishi uning biologik va genetik hususiyati bilan bog'liq bo'lganligi uchun ham, o'simliklarni oziqlanish maydoniga qaraganda ortiqcha o'zgarish bo'lmadi. Lekin har bir o'simlikdagi barglarning sathini o'zgarishi, boshlang'ich davrda sezilarli bo'lmadi, o'sish va rivojlanishning keyingi davrida esa barg sathlari bir qancha o'zgarganligi ma'lum bo'ldi.

Dala tajribada o'simliklarni joylanishi va barglarni sathi o'zgarishi:

No	Ko'chatl g nish li	Bir ardagi riy nat ligi (tuplarga)	Bir likning anish doni (m ²)					
1	70x30-1	48,0	0,210	0,17	0,36	0,67	0,78	0,98
2	70x20-1	72,0	0,140	0,12	0,28	0,58	0,66	0,80
3	70x15-1	105,0	0,105	0,08	0,21	0,45	0,52	0,67

Olingan hisob kitoblar bo'yicha jadvaldan ma'lum bo'lishicha o'simliklarni oziqlanish maydoini, o'simlik bargb sathiga vegetatsiya davrini nboshlang'ich davrida ortiqcha ta'sir etmaganligi ma'lum bo'lib keyingi rivojlanish davrida farqlar ma'lum darajada o'zgargandir. Makkajo'xori o'simligini silosbop ko'p massa xosildorligi, ekilgan maydondagi o'simliklarni oziqlanish maydoniga bog'liq bo'lib, olingan hisob-kitoblar bo'yicha o'rtacha har bir tup o'simlikni doni, suti, mumi pishgan davrda quyidagi jadvalda ifoda etiladi.

Ko'chatlarnin g joylanish shakli	Gektardagi haqiqiy o'simlik soni(ming yoki tup)	O'rtacha bir o'simlik og'irligi (gramm hisobida)	Gektardan olingan silosbop ko'k massa hosildorligi (yil hisobida)
70x30-1	47,0	1390,0	653,3
70x20-1	70,5	1070,0	754,0
70x15-1	98,0	894,0	876,0

Olingan hisob kitoblar bo'yicha jadvalda o'simlikni joylanishi 70x30-1 shaklda joylashtirilganda bir o'simlikni oziqlanish maydoni 0,210 metr kvadratga to'g'ri kelib, o'rtacha bir o'simlik og'irligi 1390 grammga to'g'ri kelib gektaridan olingan silosbop ko'k massa 653,3 yiligani tashkil etgandir.

O'simliklarni joylanishi 70x20-1 shaklda bo'lganda, har bir o'simlikka oziqlanish maydoni 0,140 metrga to'g'ri kelgan bo'lsa bir o'simlikni silosbop ko'k massasi 1070 grammga to'g'ri kelib gektardagi hosildorlik 754 yiligani tashkil etgandir.

Keyingi variantimizda o'simliklarni joylanishi 70x15-1 shaklda bo'lib, o'simlikning oziqlanish maydoni 0,105 metrni tashkil etib bir o'simlikni

silosbop ko'k massa og'irligi 894,0 grammga to'gri kelib,gektardan olinadigan hosildorlik 876,0 yiligani tashkil etdi.

Xulosa qilib aytilganda,olingan dala tajriba natijalari asosida bug'doydan keyin ozuqa uchun makkajo'xorini silosbop ko'k massa olish uchun „O'zbekiston--100" navi ekiladigan bo'lsa,fermer xo'jaliklariga o'simlikni joylanish shakli 70x15-1 bo'lsa yuqori xosildorlikka erishish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.Adinyayev E.D.